

## QORAKO'L TERILARINI YOG'LOVCHDA QO'LLANILADIGAN YOG'LOVCHI KOMPONENTLAR

**Urinova Aziza Ziyadullayevna**

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti assistenti

E-mail: [aziza.urinova.88@mail.ru](mailto:aziza.urinova.88@mail.ru)

### **ANNOTATSIYA**

*Qorako'l terlarini yog'lovchi emulsiya xossalari bir qator omillarga, yog'lovchi emulgator moddalarni tanlashga, yog' moddalarini tanlashda, ishlov beradigan xom ashyo turiga bog'liq.*

**Kalit so'zlari:** emulsiya, giposulfit, skipidar, qorako'l terilari, soapstok.

### **АННОТАЦИЯ**

*Свойства смазывающей эмульсии каракольской кожи зависят от ряда факторов, выбора смазывающих эмульгаторов, выбора жировых веществ, вида перерабатываемого сырья.*

**Ключевые слова:** эмульсия, гипосульфит, скипидар, каракул шукура, soapstok.

### **ABSTRACT**

*The properties of the lubricating emulsion of Karakol leather depend on a number of factors, the choice of lubricating emulsifiers, the choice of fatty substances, the type of processed raw materials.*

**Keywords:** emulsion, hyposulfite, turpentine, korakul leather soapstock.

### **KIRISH**

Charmni yog'lash jarayoni ularga to'lalilikni, yumshoqlikni, cho'ziluvchanlikni, yaxshi moyillikni berish uchun, suvga chidamlilikni oshirish o'tirishini kamaytirish vaboshqa maqsadlarda amalga oshiriladi. [1]

Amaliyot ko'rsatadiki, yog'lash samarasi uning tabiatiga va ularga kiritiladigan yog'lovchi moddalar miqdori hamda ishlov berish usuliga bog'liq bo'ladi.

Yog'lovchi moddalar uch guruhga bo'linadi;

- ✓ Tabiiy;
- ✓ Tabiiy yog' va moylar modifikatsiya maxsulotlari;
- ✓ Neftni qayta ishlash maxsulotlari va sintetik yog'lovchi moddalar.

Charmni yog'lashni ikkita asosiy usuli ma'lum:

Yog'lovchi moddalar suyulmalari yoki ularning aralashmalari va emul'siyalari. [2]

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Yog'lovchi moddalar ma'lum darajada teri jun qoplamini ifloslantiradi. Shuning uchun shunday yog'lash usullarini tanlash kerakki, teri to'qimasi yaxshi yog'lanib, jun qoplami tozaligi saqlansin. Shu nuqtai nazardan biz olib borayotgan ilmiy tadqiqot ishlarimizda yog'lashning surkali usuldan foydalandik. Bu usul uchun yog'lashda yog'li emulsiya (suv + moy) tayyorlanib ishlatildi. Emulsiyada yog'lar maydalangan zarra holatida bo'lib, suvda uni erishi uchun uchinchi komponent sifatida emulgator qo'shiladi. Yog'larni emulsiyalanishi maxsus apparatlarda (emulgatorlar) olib boriladi. Bu apparatlar ma'lum haroratni ushlab tuzishga moslashgan va aralastiruvchi moslama bilan ta'minlangan. [3]

Emulsiyani tayyorlashda emulsiyalaydigan moddani suvga eritib, bu eritma aralastirilib turib, asta-sekinlik bilan yog' va ammiak qo'shiladi. Emulsiya 40-45 °S haroratda tayyorlanadi. Yog'lovchi emulsiya xossalari bir qator omillarga, birinchi navbatda yog'lovchi emulgator moddalarni tanlashga, yog' moddalarini tanlashda, ishlov beradigan xom ashyo turiga qaraladi. Yog'lovchi kompozitsiya tarkibini tuzishda baliq va er hayvonlari yog'larini aralastirish maqsadga muvofiq. Oq va rangli junli terilar uchun er hayvonlari va mineral moyni qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bular jun qoplamiga dog'xosil qilmaydi. Emulgator sifatida sulfatlanagan vorvan va alizarinli moy qo'llaniladi. Yog' aralashmasini, emulgatorni va to'g'ri tanlash, emulsiya barqarorligini shu darajada ta'minlashi kerakki, u teri to'qimasiga kirish qobiliyatiga ega bo'lishi va u yerda yoyilishi talab qilinadi. [4]

## NATIJALAR

Ilmiy tadqiqot ishida qorako‘l terilarini yog‘lashda samarali yog‘lovchi materiallar kompozitsiyasi uchun xom ashyo sifatida mahalliy preparat hisoblangan yog‘ ekstraksiya zavodining ikkilamchi maxsuloti soapstokni qo‘llashni maqsad qilib oldik. Qo‘llaniladigan yog‘lovchi materiallar tarkibi qatlamiga ajralmasligi teri to‘qimasiga tekis materiallar tarkibi qatlamiga ajralmasligi teri to‘qimasiga tekis yoyilishi, suvli emulsiyalari 2 soatgacha barqaror bo‘lishi, ular olgan erituvchilar yordamida teri sirtidan osongina tozalanishi kerak. [5-6]

Shu maqsadda qorako‘l terilarini yog‘lash uchun samarali va texnologik jihatdan qulay tarkibli kompozitsiyalar yaratildi.

Yog‘lash kompozitsiyasi tarkibi 1-jadvalda keltiriladi.

1-jadval

### Qorako‘l terini moylashda kompozitsiya tarkibi variantlari

№	Komponentlar	Variantlar					
		Nazorat	I	II	III	IV	V
1.	I-12A industrial	10	8	7	6	5	5
2.	SAM, OP-10 g/l	1	1	1	1	1	1
3.	Skipidar, ml/l	0.5	0.5	0.5	0.5	0.5	0.5
4.	Soapstok	-	2	-	2	3	1
5.	Distillangan yog‘li kislota	-	-	3	2	1	4

## MUHOKAMA

Tajriba sinovlari uchun achitib konservalangan 4 ta qorako‘l teri namunalari ishlatildi. Ishlov berish uchun apparat sifatida kafedra charm mo‘yna yarim ishlab chiqarish laboratoriyasidagi uskunadan foydalanildi. Ishlov berishdan avval suv keyin tuz va giposulfit solinadi. Teri namunalari solinadi 30 minutdan so‘ng xromli ekstrakt solinib, 10 minutdan keyin uning miqdori tahlil qilinadi. 30 minutdan so‘ng yog‘li emulsiya solinadi, keyin esa skipidar quyuladi. Oshlash-yog‘lash jaranining umumiy davomiyligi 7 soatni, suyuqlik koeffitsienti 8, harorat 37 °S ni tashkil qiladi. Keyingi pardoqlash jarayonlari yagona qabul qilingan usulda olib boriladi.

Oshlash jarayoni charm va mo'yna sanoati uchun eng asosiy jarayon hisoblanadi. Oshlashdan so'ng, xom ashyo tayyor charm va mo'ynaga xos bo'lgan xossalarga ega bo'ladi. [7]

### XULOSA.

Har bir mo'yna xom ashyolari turi uchun alohida ishlab chiqarish uslubi mavjud. Jumladan qorako'l terilariga ishlov berish jarayonlari boshqa mo'yna terilariga ishlov berishdan farq qiladi. Masalan, qorako'l terilari uchun nordonlashtirish (achitish) uchun arpa uni bilan tuz ishlatiladi. Oshlash va yog'lash jarayonlari birgalikda olib boriladi. Biz olib borayotgan tadqiqot ishlarimizda qorako'l terilariga ishlov berish texnologik sxemasida ilmiy tadqiqot ishlari asosida o'zgarishlar. [8]

2-jadval

Qorako'l terilariga ishlov berish texnologik sxemasi

Tadqiqotgacha	Tadqiqotdan keyin
1. Ivitish	1. Ivitish I
2. Mezdralash	2. Ivitish II
3. Achitish 5 sutka	3. Mezdralash
4. Yotqizish	4. Yog'sizlantirish
5. Oshlash-yog'lash 8 soat	5. Yuvish
6. Siqish	6. Yumshatish-pikellash-oshlash 18 soat
7. Cho'zib – yoyish	7. Yotqizish
8. Quritish	8. Siqish
9. Yotqizish	9. Mashinada yoyish
10. Dumalatish I	10. Yog'lash
11. Yoyish	11. Quritish
12. Dumalatish II	12. Dumalatish
13. Yoyib tozalash	13. Yoyish
14. Pardoqlash	14. Pardoqlash

Bu texnologiya bo'yicha oshlash pikellash bilan birgalikda olib boriladi. Yog'lash jarayoni surkash usuli bilan alohida amalga oshiriladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.Zokirov, U.Valiev, Sh.Shirinboev Qorako'lchilik Toshkent, "O'qituvchi", 1983 y. 301b.
2. И.П.Страхов и др. "Химия и технология кожи и меха". Москва, Легпромбытиздат, 1985. 495с.
3. М.И. Temirova, Т.Ж. Qodirov "Charm va mo'yuna texnologiyasi". Toshkent, Turon – Iqbol, 2005. 255b.
4. Уринова А. З. ТЕХНОЛОГИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРОИЗВОДСТВА КАРАКУЛЬСКОЙ ПРОДУКЦИИ //Вестник науки. – 2023. – Т. 3. – №. 5 (62). – С. 972-977.
5. Уринова А. З. Усовершенствование технологии разработки и применение жирующих композиций кожи //Вестник науки. – 2022. – Т. 3. – №. 3 (48). – С. 131-136.
6. Уринова А. З., Мустакимова Х. М. РАЗРАБОТКА ЖИРУЮЩИХ КОМПОЗИЦИЙ, ПРИМЕНЯЕМЫХ В КОЖЕВЕННО-МЕХОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ //Вестник науки. – 2022. – Т. 3. – №. 3 (48). – С. 137-144.
7. Уринова А. З. и др. Виды сварных соединений и их применение в швейном производстве //Молодой ученый. – 2016. – №. 7. – С. 201-204.
8. Shodiev Z. et al. Determination of heat efficiency in drying cotton raw materials in cotton grinding factories //Journal of Physics: Conference Series. – IOP Publishing, 2022. – Т. 2388. – №. 1. – С. 012177.